



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## BOLA OBRAZI BADIY ADABIYOTDA UNIVERSAL OBRAZ SIFATIDA

### THE IMAGE OF THE CHILD AS A UNIVERSAL IMAGE IN FICTION

**Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

E-mail: [ismonovayorqinoy13@gmail.com](mailto:ismonovayorqinoy13@gmail.com)

ORCID:0009-0009-0633-4590

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./QINM2058](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./QINM2058)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada badiiy adabiyotda bola obrazining shakllanishi, tarixiy-estetik taraqqiyoti hamda uning universal obraz sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Bola obrazi poklik, ezgulik va beg'uborlik ramzi sifatida muqaddas manbalar, xalq og'zaki ijodi hamda epos va dostonlar misolida yoritib beriladi. Shuningdek, o'rta asrlar adabiyotida bola obrazining nisbatan cheklangan talqini hamda XVII asrdan boshlab gumanistik qarashlar ta'sirida uning adabiyotdagi mavqeining o'zgarishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada roman janrida bola obrazining funksional vazifalari, xususan, hikoyachi va vositachi obraz sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari misolida bola obrazining epizodik va biografik metod asosidagi talqinlari tahlil qilinib, uning badiiy psixologizmni kuchaytirishdagi roli asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *bola obrazi, bolalik tasviri, badiiy obraz, universal obraz, epos va dostonlar, gumanizm, roman janri, psixologizm.*

**Annotation.** *This article analyzes the formation of the image of a child in fiction, its historical and aesthetic development, and its place as a universal image. The image of a child as a symbol of purity, goodness, and innocence is highlighted on the example of sacred sources, folk oral literature, and epics and epics. Also, the relatively limited interpretation of the image of a child in medieval literature and the change in its position in literature under the influence of humanistic views starting from the 17th century are considered on a scientific basis. The article reveals the functional tasks of the image of a child in the novel genre, in particular, its importance as a narrator and mediator image. On the example of Abdulla Qodiriy's novels "Bygone Days" and "Scorpion from the Altar", interpretations of the image of a child based on episodic and biographical methods are analyzed, and its role in strengthening artistic psychologism is substantiated.*



**Keywords:** *The image of a child, the image of childhood, the artistic image, the universal image, the epics and epic poems, humanism, the novel genre, psychologism.*

Bola obrazi badiiy adabiyotning eng qadimiy va eng muhim obrazlaridan biri bo'lib, u asrlar davomida poklik, ezgulik, beg'uborlik, tabiiylik va insoniy kamolot ramzi sifatida talqin etib kelinadi. Inson hayotining ibtidosi bo'lgan bolalik davri adabiyotda nafaqat biologik yoki yosh bilan bog'liq tushuncha sifatida, balki ma'naviy-axloqiy mezon, ideal holat, insonning eng sof ruhiy pallasini ifodalovchi badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Bola obrazining tarixiy-madaniy ildizlari muqaddas manbalar — Qur'oni Karim, Hadisi sharif, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari, miflar, epos va dostonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Islomiy manbalarda bola fitratan pok, gunohsiz mavjudot sifatida talqin qilinadi. Hadislarda bolaga mehr ko'rsatish, uni asrash va tarbiyalash oliy insoniy fazilat sifatida e'tirof etiladi. Ana shu qarashlar badiiy tafakkurda ham o'z aksini topgan.

Xalq og'zaki ijodida, xususan, epos va dostonlarda bola obrazi ko'pincha favqulodda, g'ayritabiiy kuchga ega qahramon sifatida tasvirlanadi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li singari qahramonlarning bolaligi alohida syujet sifatida berilib, ularning kelajakdagi buyuk ishlariga ishora vazifasini bajaradi. Bu kabi asarlarda bola — tanlangan, ilohiy qudratga ega, ezgulik yo'lida xizmat qiluvchi obraz sifatida gavdalanadi. Qahramon ulg'aygani sari uning bolalikda namoyon bo'lgan ezgu fazilatlarini kamol topib, u komil inson darajasiga yetadi.

Dunyo adabiyotidagi eposlarda ham ayni qonuniyat kuzatiladi. Demakki, bola obrazi global badiiy tafakkurda universallik kasb etgan timsoldir.

O'rta asrlar adabiyotiga kelib, bola obrazining badiiy faoliyati ma'lum darajada cheklanadi. Bu davrda bolalik mustaqil estetik obyekt sifatida emas, balki kattalar hayotiga bog'liq ikkilamchi holat tarzida tasvirlangan. Bola va uning ichki dunyosi asarlar markaziga qo'yilmadi. XVII asr boshlariga qadar bolalar jamiyatning ko'zga tashlanmaydigan, ijtimoiy jihatdan passiv qatlami sifatida qaralganini ko'ramiz. Biroq Yevropada gumanizm g'oyalarining shakllanishi bilan inson shaxsi, uning yoshi va individual ruhiyati muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Natijada bola ham jamiyatning faol subyekt, o'z dunyoqarashi va hissiyotiga ega shaxs sifatida adabiyotga kirib keladi.

Roman janrining shakllanishi va rivoji jarayonida obrazlar tizimi ham murakkablashadi. An'anaviy oshiq–ma'shuqa–raqib uchligidan tashqari ota-ona obrazi, do'st obrazi, xizmatkor obrazi, kundosh obrazi kabi universal obrazlar paydo bo'ladi. Shu qatorda bola obrazi ham roman obrazlari tizimida muhim va universal

obraz sifatida shakllanadi. Bola romanda voqealarning bevosita ishtirokchisi, guvohi, ba'zan esa hikoyachisi sifatida maydonga chiqadi.

O'zbek romanchiligi tarixida Abdulla Qodiriy ijodi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Adibning “O'tkan kunlar” romanida bola obrazi markaziy planga chiqmaydi, u asarda epizodik obraz sifatida ishtirok etadi.

Shunga qaramay, bu obrazlar ijtimoiy muhitni ochishda, oilaviy munosabatlarni ko'rsatishda muhim vazifa bajaradi. Bola bu yerda davr manzarasining bir bo'lagi sifatida tasvirlanadi.

“Mehrobdan chayon” romanida esa bola obrazi nisbatan kengroq talqinda namoyon bo'ladi. Asarda qahramonning bolalik davriga murojaat qilinishi biografik metod asosida amalga oshiriladi. Bola obrazi qahramon xarakterining shakllanish bosqichlarini ochib berishda, uning ruhiy dunyosini anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, romanda “vositachi bola” obrazi ham uchrab, u voqealar rivojida muayyan bog'lovchi vazifani bajaradi.

Bola romanda hikoyachi yoki roviy sifatida ishtirok etganda, muallif qahramon ruhiyatiga yanada chuqurroq kira oladi. Bola nigohi orqali tasvirlangan voqealar samimiylilik, tabiiylik va psixologik aniqlik bilan ajralib turadi. Bu holat asar badiiy psixologizmini oshiradi. Psixologizm esa yozuvchi mahoratining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, aynan bola obrazi orqali u yanada ta'sirchan namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bola obrazi badiiy adabiyotda oddiy yosh timsoli emas, balki ma'naviy poklik, insoniy kamolot va ezgulikni ifodalovchi universal obrazdir. Uning adabiyotdagi evolyutsiyasi jamiyatning inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir davr adabiyoti bola obraziga o'z estetik va ijtimoiy talqinini beradi.

### Adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim. – Toshkent: O'zbekiston musulmonlari idorasi nashriyoti.
2. Imom Buxoriy. *Al-jome' as-sahih* (Hadislar to'plami). – Toshkent.
3. Karimov N. *Xalq og'zaki ijodi va badiiy tafakkur*. – Toshkent: Fan.
4. Mirzayev T., Sarimsoqov B., Jo'rayev M. *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. – Toshkent: O'qituvchi.
4. Qodiriy A. *O'tkan kunlar*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
5. Qodiriy A. *Mehrobdan chayon*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
6. Yo'ldoshev Q. *Badiiy asar tahlili va talqin masalalari*. – Toshkent: Fan.
7. Rasulov R. *O'zbek romanchiligi va badiiy obraz*. – Toshkent: Akademnashr.